



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 8-fevral, № 29 (8652)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



BELARUS PREZIDENTI O'ZBEKISTONGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko 7-fevral kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Shundan so'ng Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko poytaxtimizdagi "Humo Arena" muz saroyiga tashrif buyurdi.

Sport majmuasida Belarus yetakchisini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Muz saroyidagi ushbu uchrashuv chuqur ramziy ma'noga ega. Aleksandr Lukashenko — xokkey ishqibози, Belarusda ushbu sport turini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi, o'zi ham bir necha bor muz maydoniga tushgan.

O'zbekistonda ham sportning qishki turlari, shu jumladan, xokkeyni rivojlantirish

bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. 2019-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Humo Arena" ko'p funktsiyali muz saroyi barpo qilingan edi. Toshkentning "Humo" jamoasi xalqaro va mintaqaviy musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda, xususan, Belarusning Grodno shahri "Neman" klubi bilan bellashib kelmogda.

Tanishuv chog'ida Prezidentlar Toshkentning "Humo" va Ostonaning "Nomad" xokkey jamoalari o'rtasidagi uchrashuvni tomosha qildilar. O'yin yakunida oliy martabali mehmonlarga ularning ismlari tushirilgan xokkey kiyimi topshirildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 8-fevral kuni bo'lib o'tadi.

Tashrif dasturiga muvofiq oliy

darajadagi muzokaralar o'tkazilishi, ularda O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan.

O'zaro tovar ayirboshlashni oshirish, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, kommunikatsiyalar va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo'ladi.

Professional ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalarida sheriklikni rivojlantirish dasturlari ham muhokama qilinadi.

Muzokaralar yakunida ikki tomonlama hujjatlar to'plamini qabul qilish ko'zda tutilgan.

O'ZA.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI OZARBAYJON YETAKCHISINI PREZIDENT SAYLOVI MUVAFFAQIYATLI O'TKAZILGANI BILAN TABRIKLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-fevral kuni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqotda ushbu mamlakat Prezidentligiga navbatdan tashqari saylov muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Saylovchilar ishtiroki va faolligi yuqori darajada bo'lganini qayd etib, davlatimiz rahbari qardosh ozarbayjon xalqi davlat kelajagi, kuchli va gullab-yashnagan Ozarbayjon uchun ovoz berib, to'g'ri qaror qabul qilganiga ishonch bildirdi.

Suhbatda O'zbekiston —

Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik ijobiy sur'atda rivojlanib

borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra tovar ayirboshlash 30 foizga oshdi. Qo'shma Investitsiya kompaniyasi o'z ishini boshladi, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa tarmoqlardagi

kooperatsiya loyihalari faol amalga oshirilmoqda. Xalqaro tuzilmalar, shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi. Bo'lajak tadbirlar rejasi ko'rib chiqildi.

O'ZA.

Biz va jahon

O'ZARO MANFAATLI ALOQALAR KENGAYMOQDA

Oliy darajadagi O'zbekiston — Belarus sammiti arafasida Belarus media makonida yurtimiz hayotiga oid turkum maqolalar va xabarlar e'lon qilinmoqda.

Jumladan, Belarus telegraf agentligi (BelTA) o'z kanallari orqali O'zbekiston poytaxtidan, shuningdek, Samarqanddan va mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan bir qator axborot materiallarini tarqatayapti.

Agentlik 6-fevral kuni Toshkentda Belarus va O'zbekiston tashqi ishlar vazirlari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tgani haqidagi maqolani e'lon qildi. Nashrda qayd etilganidek, uchrashuvda ikki tomonlama va ko'p tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar batafsil muhokama qilindi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ishlab chiqish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Belarus OAV 6-7-fevral kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston — Belarus hududlararo II forumi yakuniy natijalariga alohida e'tibor qaratdi. Forumda Belarus delegatsiyasiga Bosh vazir o'rinbosari Leonid Zayas

boshchilik qildi. Delegatsiya tarkibida qishloq xo'jaligi vaziri Sergey Bartosh, sanoat vaziri Aleksandr Rogojnik, sport va turizm vaziri Sergey Kovalchuk, ta'lim vaziri Andrey Ivanov, sog'liqni saqlash vaziri Aleksandr Xodjaye, viloyatlar, korxonalar va oliy o'quv yurtlari rahbarlari ham bor edi. Tadbirda Belarus viloyatlari va ishbilarmon doiralari vakillari ham qatnashdi.

BelTAning yozishicha, ikki kun davomida tomonlar O'zbekiston va Belarus hududlari o'rtasidagi hamkorlikning keng ko'lami masalalarini — sarmoyaviy va sanoat kooperatsiyasidan tortib, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan aniq yo'nalishlarni muhokama qildilar.

Tadbirda Belarus Savdo-sanoat palatasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamkorligida sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida ishbilarmon hamkorlikning maslahat

organi — Belarus — O'zbekiston ishbilarmonlar kengashining uchinchi yig'ilishi tashkil etildi. Unda Belarus va O'zbekiston tashkilotlari o'rtasidagi ishbilarmonlik aloqalari samaradorligini oshirish, shuningdek, ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish masalalari xususida fikr almashildi.

Boshqa bir xabarda O'zbekistonda bo'lib o'tgan muzokaralarda Vitebsk va Qashqadaryo viloyatlari vakillari o'rtasida onkologiya, bolalar xirurgiyasi, transplantologiya va endokrinologiya sohalarida hamkorlik qilish bo'yicha kelishuvlarga erishilgani ma'lum qilangan. Ta'kidlanishicha, tomonlar iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, turizm, axborot texnologiyalari va sport sohalarini bo'yicha ham muzokaralar olib bordi.

"Grodno va Samarqand viloyatlari hamkorlikni rivojlantirish niyatida. Bu haqda viloyat rahbarlari Vladimir Karanik va Erkinjon Turdimov tomonidan uchrashuv chog'ida aytili", deya qayd etiladi agentlik xabarida.



Bedor o'y

Ma'naviy uyg'oqlik – vatanparvarlik nishonasi

Bugun yurtimiz bo'ylab g'ayrati baland,matonatli, jasoratli o'g'il-qizlarimiz ishtirokida "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!", "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiorlari ostida ma'naviy-ma'rifiy festivallar bejiz o'tkazilmayapti. Mazkur tadbirlar yoshlarimizda vatanparvarlik, erksevarlik, yurtsevarlik tuyg'ularini, ma'naviy immunitetni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi, desak, adashmaymiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish qanday bo'lishi kerakligini Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi ulug' alomdalarimiz, sarkardalarimiz, shoir va mutafakkirlarimiz o'z hayotlari, faoliyatlari misolida ko'rsatib bergan.

Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'pon singari ziyolilarimiz asarlarida tarannum etgan el-yurtga muhabbat, o'z tili va diniga sadoqat, mamlakat taqdiriga daxldorlik hislari bugungi kunda ham dolzarb

ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularning serzahmat umr yo'li — azob-uqubatlarga qaramay jasorat va matonat bilan bugungi farovon kunlar uchun kurashishi, hatto jonini ham fido qilishi har birimiz uchun o'mak.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, tarixdan ma'lumki, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyovillar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqan.



Milliy brend siyosati:

DENGIZ PORTIMIZ YO'Q, AMMO TANLAGAN STRATEGIYAMIZ BOR



Bugun O'zbekiston jahon bozoriga chiqishning yangi muqobil yo'llarini qidirmoqda. Chunki dengiz portlari bizdan ancha olisda. Okeanga kamida ikki davlat orqali chiqadigan mamlakatlardan birimiz. Bu esa mahsulot importi va eksportida transport xarajatlari ulushi ortishining asosiy omili. Oqibatda yurtimizga olib kirilayotgan yoki

Prezident tashabbusi

Albatta, davlatimiz rahbari boshchiligidagi bunday izchil sa'y-harakatlar o'z amaliy natijalarini bermogda. Ammo tashqi bozordagi o'rnimiz va mavqeimizni mustahkamlash, iqtisodiyotimizni eng ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarish uchun bular yetarli emas.

Xo'sh, u holda ushbu dolzarb masalaning yana qanday oqilona yechimlari bor?

Bu haqdagi taklif va tashabbuslar bir yarim oy avval Prezidentimiz boshchiligidagi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida o'rtaga tashlanib, tegishli ustuvor vazifalar belgilab olindi.

AQSH do'konlarida meva-chevalarimiz sotiladi. Sanoat mahsulotlari-chi?

Zaminimizda yetishtirilgan sarxil noz-ne'matlar dovrg'i yetti iqlimga mashhur. O'zbek qovuni, anori, uzumi, anjiri, gilosini Nyu-York yoki Seul supermarketlari peshtaxtalarida ko'rib hozir ko'p ham ajablanmaymiz. Marg'ilondan adrasu atlas, Rishtondan naqshinkor sopol laganu ko'zalar, Chustdan pichoq, Samarqanddan nonu mayiz, Buxorodan kashtado'zlik namunalari, Xorazmdan cho'girma xarid qilayotgan fransuz, italyan yoki koreys sayyohlarini ham xuddi

odatdagiday, hayratu hayajonsiz qabul qilishga odatlandik.

Biroq shu o'rinda bir haqli savol tug'iladi: nega, aytaylik, olis Kanadaning Vankuver yoki Braziliyaning Fortaleza shahrida yashovchi odamlar O'zbekiston yorlig'i tushirilgan kamzul yo poyabzallarni talashib-tortishib xarid qilmaydi? Nima uchun ijtimoiy tarmoqlarda tilidan bol tomib o'zbek palovi, somsasi, tandir go'shti, norin yo hasipini maqtayotgan ajnabiy mehmonlarga yurtimizda ishlab chiqarilayotgan texnologiya va texnikalar, buyum va ashyolar u qadar qiziqarli va jozibador emas?





“Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani...”

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokama qilinar ekan, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning jamiyatda o'z o'rini topishi masalasiga ham urg'u berilgani xalqimizni juda xursand qildi. Axir besh asr muqaddam Alisher Navoiy bobomiz ham o'z asarlarida ayni shu masalani badiiy talqin qilgan, ertangi kunimiz egalari baxtu saodati uchun kuyungan. Buyuk alloma orzularining bugungi ro'yobi har birimizni masrur qiladi.

Munosabat

Alisher Navoiy boqiy merosini o'rganar ekanmiz, ularning zamirida inson qadri, kamoloti, xalq manfaatlari g'oyalari yotganini ko'ramiz. Masalan, ulug' shoir:

Yigitlikda yig' ilmning maxzani,

Qarilik chog'i sarf qilg'il ani,

der ekan, yoshlarni o'tayotgan har daqiqadan unumli foydalanib, bilim olishga, kitob o'qishga, ma'nan boyishga, ilm xazinasini kengaytirishga undaydi. Vaqt — oqar daryo. Keksayganingda mana shu xazina koringga yaraydi, hayotda o'rningni topishingda, umr yo'lingda uchragan to'siqlarni yengib o'tishingda, obro'-e'tibor, mavqe kasb etishingda, baxtli-saodatli, farovon yashashingda asqatadi, deydi u.

Ulug' mutafakkir "Hayrat ul-abror"da ham insonning umr bahori, eng go'zal davri haqida so'z yuritgan. Shoir insonga berilgan umrni fasllarga qiyoslaydi. Kishi umr bahorini shunday o'tkazishi kerakki, yoshlik mevalari to'kilib, baqo gulshanini go'zallik tark etganda, oh ila nadomatlar chekmasin.

Hayotda ko'rib turibmizki, kimdir qisqa umrini mazmunli o'tkazib, elga nafi tegadi. Kimdir esa mazmunsiz umr kechiradi. Alisher Navoiy ta'kidicha, har bir inson umrining bahori — yigitligini ilm-hunar egallashga safarbar etmoq'gi lozim.

"Farhod va Shirin" dostonida Farhodning yoshligidan mehnat, ilm va hunar egallashga safarbar etilishida ham buyuk ajdodimiz ezgu orzu-niyatlari mujassamdır. Shoir doston qahramonini tasvirlarkan, "Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm, Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm", deydi.

Doston voqeligi ko'rsatadiki, kimki ilmu hunarni puxta egallagan bo'lsa, o'z orzulari ro'yobiga, albatta, erishadi. O'z ilmiga ishonch, tilsimlarni yechish, hunar va san'atini har sohada ko'rsata olish — Farhodning ilm jihatidan takomilga yetganini ko'rsatadi. Bu bilan hazrat Navoiy inson tafakkuri bilan har qanday muammoni hal etishi mumkinligini ham aytadi. Ilm bu yo'lda insonga hamroh, yo'l ko'rsatuvchi mayoq ekanini ta'kidlaydi. Jumladan, Farhod tilidan shunday deydi:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod.

Ulm ichra mango to bo'ldi madhal,

Topilmas mushkule men qilmagan hal.

Farhodning kamol topishida Boniy, Moniy, Qoran, Afiotun, Suqrot, Jomasp, Xizr, Suxaylo kabi olim, donishmand, hakimlarning xizmati katta. Alisher Navoiy bejiz bu siymolarni dostoniga kiritmagan. Inson umri davomida o'rganadi va ma'naviy boyib boradi. Farhod ham mana shunday ustozlar qo'lida ta'lim-tarbiya topdi. Komil inson darajasiga yetdi. Ulug' shoir Farhod obrazi orqali ilmiy bo'lish, hunar o'rganish, ma'naviy komillikka intilish, ezgu insoniy tuyg'ular bilan yashash g'oyalarni ulug'lagan.

Umuman, mutafakkir bobomiz ko'plab asarlarida har bir insonni bilimli, hunarli bo'lishga undab, olimlikning foydalarini hayotiy misollar asosida ko'rsatib bergan. Birgina "Quyoshiq istasang, kasbi kamol et" hikmatining naqadar asosli va mantiqli ekanini mulohaza etishning o'zi kishini hayratlantiradi.

Bugun mamlakatimizda ulug' bobomiz orzu-o'yalarining hayotga tatbiqi xalqimizni mamnun etmoqda. Prezidentimiz ta'lim-tarbiya sohasi rivojiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratmoqda. Farzandlarimiz kamolotiga bog'cha yoshidanoq g'amxo'rlik ko'rsatilyapti. Maktablarda, kollej va texnikumlarda, oliy o'quv yurtlarida zamon andozalariga mos shart-sharoitlar yaratilayotir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan yig'ilishda ta'kidlanganidek, ta'lim sohasida vazifalar juda ko'p. Shu bois Loyiha ofisi tashkil qilindi va unga katta ilmiy-amaliy tajribasi bor mutaxassislar jamlandi. Endi mazkur ofis Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo'yicha o'quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilaydi. O'quvchi va muallimlar bilimini baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Prezident maktablari ta'lim dasturi yana mingta maktabda qo'llaniladi. Ularning moddiy-texnika bazasi shunga muvofiq yaxshilanadi.

Kullas, yig'ilishda maktabgacha ta'lim, maktab, professional va oliy ta'lim tizimida sifat o'zgarishlariga olib keladigan qator chora-tadbirlar belgilandiki, ularning barchasi yoshlarimizning zamonaviy bilimlarni, hunarlarni egallab, hatto xalqaro darajada raqobatbardosh kasb sohiblari bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Bu esa ajdodlarimizning, jumladan, Alisher Navoiy bobomizning hayot tamoyiliga aylangan ezgu maqsadidir.

Marg'uba ABDULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bundan besh asr muqaddam hazrat Alisher Navoiy:
“Turk nazmida chu men tortib alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam”,
deb yozgan edi. Ya'ni, ul zot ona tili bayrog'ini
baland ko'tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim,
deb iftixor qilgan.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



“... Har va'daki, aylasa vafodur anga shart”

Turkiy xalqlar osmonining so'nmas quyoshi, mutafakkir shoir Alisher Navoiy mumtoz Sharq poetikasining o'n olti lirik janridagi asarlardan tarkib topgan “Badoe' ul-bidoya” devoni misolida o'z davri poetik uslubiga xos juda ko'p ilmiy masalalarni, xususan, turkiy til imkoniyatlari, yozma adabiyotda stilistika qonuniyatlari, og'zaki badiiy ijodning lirikaga ta'siri masalalarini tahlil qilish mumkin.

Tadqiq

Xususan, buyuk ajdodimiz she'riyatda g'azaldan tashqari o'z davrida keng tarqalgan lirik janrlarning turli ko'rinishlardagi takomiliga erishar ekan, estetik tamoyillarning yangi qirralarini namoyish etadi.

Jumladan, “Badoe' ul-bidoya” devonidan 85 ruboiy o'rin olgan va ularning aksariyati ruboiy-taronadir. Bu ruboiylar orasida tabiat mo'jizalarining go'zal tasviri berilgan mo'jaz lavhalar uchraydi:

Suv ko'zgunisi bog' aro aylarda shitob

Siyob qilur erdi taharruk bila tob,

Day qildi bu siymobni andoq ko'zgu,

Kim ko'zgu aning qoshida bo'lg'ay siymob.

Nasriy bayoni shundayki, bog'da ko'zgudek jilolanib turgan suv yuzida simob o'ynar edi. Yoki bir yog'du — shu'la suv yuzida simobdek jilolanar edi. Qish

sovug'ining shiddati bu simobni shunday bir ko'zguga aylantirdiki, uning tiniqligini ko'rgan ko'zgu simobdek erib ketdi.

Kichik shakl, ammo chuqur mazmunli ruboiylarida shoir o'z ijodiy uslubiga xos so'z o'yini qiladi. Masalan, shoir mug'bacha obrazida, albatta, dayr piri, ya'ni bu dunyodagi bir ma'rifiy yo'lbo'shchini nazarda tutadi, jomu may obrazlarida esa ma'rifiy suhbatlar, pok muhabbatga intilish nazarda tutiladi.

Quyidagi ruboiyda ham bizni o'ziga tortgan hodisa shoir adabiy-estetik prinsiplariga xos so'z o'yinidir. Ijodkor bir jom may haqqiga jonini beryapti, ikki jom may uchun esa ikki dunyosini hadya etmoqda. Ilohiy muhabbat zavqidan bir tomchisini to'kkanimdan ko'ra, qonim to'kilsin, demoqda:

Ber jomu ol, ey mug'bacha, jonimni ivaz,
Qo'sh tutqilu, ol ikki jahonimni ivaz,
Oni sumururda qatraye tomsa agar,
Sen ham to'k aning o'rniga qonimni ivaz.

Shoirning bu mazmundagi ma'rifiy fikrlari ijtimoiylashgan tarzda ba'zi ruboiylarda namoyon bo'ladi:

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,

Har va'daki, aylasa vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

Ollig' a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Podshoh bo'lishni istagan kishi saxovatli, va'dasiga vafodur qiluvchi bo'lishi kerak. Faqirlik, darveshlik da'vo qilgan kimsa esa, Allohdan neki kelsa rizo bo'lib, shukr qilib, asosiy maqsadi — hayotiy talablar va ehtiyojlar yukidan o'zini xalos etmoq bo'lishi kerak.

Alisher Navoiy ijodida kichik lirik janrlarning poetik jihatdan shu tariqa mukammal darajadagi takomili uning Sharq mumtoz she'riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqanidan dalolat beradi.

Dilorom SALOHYI,
filologiya fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.



Necha ming asrlar ilgari so'nib ketgan yulduzlarning shu'lasi bizga hamon sezilib turgani kabi tarixda o'tgan buyuk ajdodlarimizning ma'rifati nuralan hanuzgacha bahramandmiz. Sir emaski, ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlari tilining jozibasi, o'ynoqligi, serma'noligi besh asrdan buyon butun olamga zavqu shavq berib, hayratga solib kelmoqda.

Hayrat

So'zlar izohi — Alisher Navoiy tilining eng murakkab va qiziqarli sohasi. Buyuk shoir ijodining bu qirrasini ochib berish uchun olimlarimizning ko'pgina ilmiy tadqiqotlari, risolalari e'lon qilindi. Hali-hamon o'rganilishda davom etmoqda.

Hazrat Navoiy tilidagi so'zlar izohida bir hodisa bizning ham e'tiborimizni o'ziga jalb

etdi. U ham bo'lsa, bir xil shakldagi so'zlarning zid ma'nolarda qo'llanilishi. Fikrimizni to'laroq tushuntirish uchun misollarga murojaat qilsak:

Ey, husnunga zarroti jahon ichra tajallo,

mazhar senga ashyo,

Sen luf bilav kavnu makon ichra mavlo,

olam senga mavlo.

Shoirning mahoratini qarangki, u “mavlo” so'zini bir misrada bir-biriga zid ma'nolari bilan qo'llaydi. Baytning birinchi misrasi shunday izohlanadi: ey, husnidan zarralar jahon ichra

jilvalanuvchi, sening jamoling dunyodagi barcha narsada aks etadi. Ikkinchi misrani ikki qismga bo'lib izohlaymiz. Birinchi qismda “mavlo” so'zi sohib, xoja, hokim ma'nosida kelgan, ya'ni: sen iltifot ila bu dunyoda hokimsan, sohibsan. Misraning ikkinchi qismida esa bu so'z qul, banda ma'nosida keladi: olam — senga qul. Mumtoz adabiyotda dunyodagi har bir jismda Allohning aksi bo'ladi, degan tushuncha bor. Bu baytda biz aynan shu ma'noni anglashimiz mumkin.

Ma'lumki, “chekmoq” so'zi mumtoz adabiyotda serma'noligi bilan mashhur. Uning ma'nolari orasida ham bir-biriga zid keluvchilari bor. Masalan, Alisher Navoiyning bir she'ridagi “uzmoq” ma'nosini olsak:

Soching kufrida o'lsam, qabrim

uzra qo'yma xirqamni,

Chekbir har torini bir barhaman

beliga zunnor et.

Ya'ni sening sochingga ishtiyoqmand bo'lib, soching ishqida o'lsam, kiyimimni qabrim ustiga qo'yma, qoldirma, uni parcha-parcha qilib, barhamanga (oshiqqa) ber, u beliga belbog' qilsin.

Endi “uzmoq”qa antonim bo'lgan “tutashmoq” ma'nosini olamiz:

Qoshining yoyi chekilmish zulfi chavgonig'acha,

Zulfi chavgoni dog'i go'yi zanaxdonig'acha.

Qoshining yoyi shaklida bo'lishi Sharqda go'zallik belgisi hisoblanadi. Baytda

ma'shuqaning go'zalligini ifodalash uchun aynan shundan foydalanilgan. Ya'ni qoshining yoyi zullfiga, undan iyagiga tutashib ketgan.

Keling, bu so'z “yechmoq” ma'nosida qo'llangan baytni ko'rib chiqamiz:

Qildi ashkinni shafagun hajr bepoyon tuni,

Xullasin chek tongning, ey gardunki,

qon bo'lg'usidur.

Ya'ni hijronning bepoyon tuni ko'zyoshlarimni qizil tusga kiritdi. Tezroq tong otsin, bo'lmasa hammayoq qonga to'lib ketadi.

Yuqoridagi ma'noning antonimi esa “bog'lamoq”dir:

Aytdim, boshimni fitrokingga chek,

ey shahsuvor,

Dedi, bosh asardek ermas

tezlikdan markabim.

Baytning mazmuni shunday: aytdimki, boshimni egaringga bog'lab ket, ey chavandoz. U esa: “Ulovim shunchalik tez ketyaptiki, o'z boshimni ham bazo'r asrayapman”, dedi. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, Navoiy hazratlari o'zbek tilining betakror go'zalligini o'z ijodi bilan isbotlab bergan. Biz ham ulug' ustoddan ibrat olib, tilimizni boyitishga, asrab-avaylashga harakat qilsak, o'zbek degan millat nomi tarix zarvarqalarida abadiy turaveradi.

Iroda ESHONXONOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir N. Ostonov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.52 Topshirildi — 00.20

1 2 3 4 5 6